

cb

Yurtimizda 14-30 yoshdagi jami yoshlar:

9 million 685 ming 564 nafar

Shundan erkaklar:
4 954 910 nafar

Xotin-qizlar:
4 730 654 nafar

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

42-43 (16496)
2022-yil, 30-iyun payshanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

4-bet Yoshlar kunining yorqin 5 yilligi

7-bet G'olib so'zi

9-bet Yosh shaxmat javohirlari

11-bet Fikrlash – muammoning yechimi

Yoshlar bilan ishlashning muhimligi yanada yanqartildi. Yoshlar kuni. Yangi O'zbekiston. Yoshlarga oid davlat siyosati... qadrlang, ilmga intiling! Yoshlik – umrning eng bahona davri. Ushbu davrda nima ish qildim? Yana nima qila olaman? M... yoshlar... zarangdor shiorlar bilan emas, balki... bosqichda – ma... halla, t... publika daraj... dagan yaxlit tizim yaratildi. 20... mo'ljallangan a... bul qilindi. "Eng faol... rik-tanlovi... Prezident sovg'asi – avt... "Yoshlar daftari". Y... lam turlari 11 tad... yo'nalishda... ariuz yagona elektr... a tushirildi. Platforma... aralarning 22 ta... integratsiya... mi 8 mln. 238 ming... o'g'risida ma'lumotlar... yoshlarga ko'm... 50 nafar imkoniyati chek... amga muht... aratga olindi... 195,4 mlrd. so'm... ordam ko'rsatildi. 1093 qis... ar... oshlar daftari" ga... onlayn muroja... nafar tinglovchi kasb soha... olib, ydonlari ajratildi. 42,1 ming n... oizga qisqardi. Yosh tabirka... ribat, odamiylik, saxovat daf... t... qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy... sixologik ko'mak berildi. Ipotek... tilgan 90,8 mingta oilaning... dan pul mablag'lari tarqatildi... lar ovozi" tanlovida 10 yoshda... etdi. G'oliblarga uchta o'r... atlangan 10 million so'm bilan... gi "Yoshlar forumi" doirasida... o'paytirdi. "Black and white" t... kmat turniri bo'lib o'tdi. "Mark... qilindi. F-o'rirlarni O'zbekiston... hlik shaxmatchilar 10 ta oltin... r... tildi. "Zukko kitobxon" intellek... (2017-yil) dan bugungi kung... an... ashkil etdi. "Yosh kitobxon c... 400 dan ortig'i saralash bo... alarni... munesib "Qizlar ovozi" pla... i klubi... on – yoshlar mamakat... s. Yangi... i. "Duel". "Eko marafon... i. Yoshlar... zari" Yoshlar kuni ar... vishda foy... O'zbekistonda... O'zbekistonda... 2021-yil... soni 35 437 499... bo'lgan yoshlar 7... 611 960... kalabalari soni... 18 yoshdan... (16-30 yosh)... vatandparvar va fidoyi... yoshlarning... an taqdirlandi. "Mard o'g'lon" davlat mukofoti. "Kelajak be... on belgisi... 2021-yilda 49 nafar yosh "Shuhrat" medali bilan, 1 nafar yosh "Mehnat shuhrati" ordeni bilan, 6 nafar yosh "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. 2021-yil "Yoshlar daftari" ga 621 708 nafar yoshlar kiritilib, ularning 595 970 nafari chiqarildi. 185 144 nafari doimiy, 8 676 nafari tashqi mehnat migratsiyasi orqali ish o'rniga ega bo'ldi. 58 081 nafariga kredit, 206 643 nafariga o'kin maydoni ajratildi. 22 350 nafar hunarmandga birkentildi. 2 061 nafar yoshga notuzar joyning ijara xarajatlari, 54 528 nafariga mehnat qurollari uchun subsidiya ajratildi. 14 370 nafar yigit-qizning OTM to'lov-kontrakt pullari, 420 nafariga turar joy ijrasi, 6 795 nafariga haydovchilik quvohnomasini olish, 3 863 nafariga harbiy xizmatga yuborish, 13 954 nafar yoshning iste'dodini qo'llash, 683 nafariga YATT, 4 403 nafariga tibbiy, 3 790 nafariga psixologik xizmat ko'rsatish xarajatlari to'lab berildi. O'zbekistonda ilk bor "Volontyorlik faoliyati" to'g'risida qonun qabul qilindi. Volontyorlar maktablari faoliyat yuritmoqda. Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovi tashkil etildi. WikiStipendiya marafoni yo'lga qo'yildi. "Iltidor" loyihasi o'tkazildi. Mustaqil Davlatlar Hammasligiga a'zo davlatlarning Yoshlar masalalari bo'yicha Bengashining 30. yubiley yig'ilishi bo'lib o'tdi. MDH yoshlar poytaxti loyihasi doirasida eng birinchi MDH Yoshlar Poytaxti maqomi 2024-yilda O'zbekiston shahriga berilishi kengashi a'zolari tomonidan ma'qullandi.

YOSHLAR KUNI

O'ZBEKISTON YOSHLARI BU KUNNI ULKAN YUTUQ VA MARRALAR BILAN TANTANALI RAVISHDA KUTIB OLMOQDA.

maxsus son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING F A R M O N I

YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o‘zining yuksak azm-u shijoati, bilim va salohiyati, iste‘dod va qobiliyatini namoyon etib, turli sohalarda erishgan yutuqlari bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga, uning shon-shuhratini jahon

miqyosida yanada yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotgan, el-yurtimizga mehri va sadoqati, namunalil xulqi va odobi hamda vatanparvarlik fazilatlarini bilan tengdoshlariga har tomonlama o‘rnak bo‘lib kelayotgan quyidagi tashabbuskor va yetakchi yoshlarimiz «Kelajak bunyodkori» medali bilan mukofotlansin:

Matmuratov Gulomjon Gafurovich – Xo‘jayli tumanidagi «G‘afur-G‘ulom chorva» mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Otashova Gulayim Begim kizi – Qoraqalpog‘ davlat universitetining 2-bosqich talabasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Odiljonova Sarvinaz Azizbek qizi – Andijon davlat universitetining 2-bosqich talabasi, Andijon viloyati

Ortiqxojiyev Omatilloxon Xusniddin o‘g‘li – Asaka tumanidagi «Zamon mirishkorlari» fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Andijon viloyati

Atoyeva Vazirabonu Alisherovna – «Hunarmand» uyushmasining Buxoro viloyati bo‘limi a‘zosi, kashfado‘z

Xamdamaova Shamshoda Saidaxmat qizi – Buxoro shahridagi 24-ko‘rish bo‘yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta‘lim muassasasi targ‘ibotchisi, Buxoro viloyati

Turakulov Sardorjon Yorqin o‘g‘li – Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Jizzax filiali kardiolog, Jizzax viloyati

Ergasheva Dilchehra Urolboy qizi – Paxtakor tumanidagi «Silverleaf» qo‘shma korxonasi «John Deere» kombayni operatori, Jizzax viloyati

Qahorova Zabarjad Abdurusal qizi – Respublika «Qizlar ovozi» klubining Mirishkor tumani bo‘limi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Tursunov Adham Asomiddin o‘g‘li – «Uzbekistan GTL» mas‘uliyati cheklangan jamiyatining markaziy laboratoriyasi smena muhandisi, Qashqadaryo viloyati

Quvondiqov Ulug‘bek G‘ayrat o‘g‘li – «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining Gidrometallurgiya zavodi sianlash va sorbsiya sexi boshlig‘i, Navoiy viloyati

Sharipova Mahliyo Esan qizi – «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatining Polivinilxlorid ishlab chiqarish, kaustik soda va metanol majmuasi sex smena muhandisi, Navoiy viloyati

Isaqova Moxidil Xusanboy qizi – Uychi tumanidagi «Asmus Gold Mega Textile» ishlab chiqarish kooperativi rahbari, Namangan viloyati

Raximjanov Dostonbek Ulug‘bek o‘g‘li – Namangan shahridagi «Innovation Language Centre» nodavlat ta‘lim muassasasi rahbari, Namangan viloyati

Omonova Nilufar Jo‘rabek qizi – Samarqand shahridagi «MIT IT academy» mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

Temurov Anvar Ibdullo o‘g‘li – Urgut tumanidagi «Sam-Negin» mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori, Samarqand viloyati

Anvarov Oybek To‘lqinjonovich – «Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnoparki direksiyasi – IT Park» mas‘uliyati cheklangan jamiyatining Sirdaryo viloyati filiali boshlig‘i

Bo‘ronova Dilsora Sharifjon qizi – Xovos tumanidagi «Textile Fashion» mas‘uliyati cheklangan jamiyatining tikuv sexi ustasi, Sirdaryo viloyati

Sobirova Nazokat Rashid qizi – «Hunarmand» uyushmasining Boysun tumani bo‘limi a‘zosi, G‘ilamdo‘z, Surxondaryo viloyati

Xushboq Ulug‘bek Baxrom o‘g‘li – Qiziriq tumanidagi «Janub tongi diyori» fermer xo‘jaligi boshlig‘i, Surxondaryo viloyati

Maxsimova Risolat Qosimjon qizi – Parkent tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta‘lim maktabining ijodiy-madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchisi, Toshkent viloyati

Tursunboyeva Zuhra Botir qizi – Bo‘stonliq tumanidagi 17-bolalar musiqa va san‘at maktabining akademik xonandalik bo‘yicha o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Adxambekova Shabnam Yovsinzoda – So‘x tumanidagi «Happy kids academy» nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasasi rahbari, Farg‘ona viloyati

Ubaydullayeva Zarnigor Hasanboy qizi – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Farg‘ona viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati bo‘yicha mutaxassisi

Allaberganova Shahnoza Allabergan qizi – Urganch davlat universitetining 2-bosqich talabasi, Xorazm viloyati

Matkarimov Raxmatjon Jumanazarovich – Hazorasp tumanidagi «Nur Muhammad Islom obod» mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

Ruzmuxamedova Xodjiya Shokir qizi – Olmazor tumanidagi 102-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining eshitish idroki fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Umurzakov Islom Ilxom o‘g‘li – Toshkent shahridagi «Yosh maqomchilar» ansambli badiiy rahbari

Abdikarimov Kanat Alimjanovich – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining PR-markazi yetakchi mutaxassisi

Avazova Sevinch Pulat qizi – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 4-bosqich talabasi

Amirov Elmurod Mansuriddin o‘g‘li – Geologiya fanlari universitetining Geologiya va geofizika instituti mineralogiya laboratoriyasi boshlig‘i

Bo‘taxonov Ziyodulla Zoyirjon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi mutaxassisi

G‘ulomov Axmadjon Shavkat o‘g‘li – «Uzbekistan airways» aksiyadorlik jamiyatining Uchuvchilar xizmati departamenti A-320 havo kemasi komandiri

Dadaboyev Dilshod Abduljalil o‘g‘li – Ijtimoiy tarmoqlardagi «Uzbekistan official» sahifalari administratori, blogger

Yevstafeyev Yevgeniy Aleksandrovich – I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali 4-bosqich talabasi

Jaloliddinov Jasurbek Jamshid o‘g‘li – Futbol bo‘yicha O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi (U-23) sardori

Iminoxunov Nuruddin Abduqahhorovich – «EPAM Systems» kompaniyasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi mahsulotlar menejeri

Nematzoda Firdavs Nematovich – O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Norchayev Xusain To‘raqul o‘g‘li – Futbol bo‘yicha O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi (U-23) a‘zosi

Ruziyev Bekzod Dilmurodovich – «Boshtransloyiha» aksiyadorlik jamiyatining me‘mor-qurilish bo‘limi loyihalar bosh muhandisi

Safarov Akmal Umar o‘g‘li – O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining yosh ijodkorlar bilan ishlash sh‘basi bosh mutaxassisi

Turg‘unboyev Shaxzod Nodir o‘g‘li – O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining Janubiy Koreyadagi vakili

Xasanova Yoqutxon Baxodirjon qizi – M.Turg‘unboyeva nomidagi «Bahor» davlat raqs ansambli raqqosasi

Xodjayeva Shaxlo Murodovna – Amerika Qo‘shma Shtatlarining «Amazon» kompaniyasi biznes tahlil bo‘yicha muhandisi

Erkinov Hojimat Botir o‘g‘li – Futbol bo‘yicha O‘zbekiston Olimpiya terma jamoasi (U-23) a‘zosi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2022-yil 29-iyun

YETAKCHILARGA IMTIYOZ

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tizimi rivojiga hissa qo‘shgan, tabiiy yetakchilik qobiliyatiga ega fidoyi yoshlardan quyidagi 14 nafari OTMga imtiyozli qabul qilish uchun tavsiya etildi:

1. **Amangeldiyeva Alfifa** – Qoraqalpog‘iston Respublikasi.
2. **Karimov Asadbek** – Andijon viloyati.
3. **Yunusova Shexruza** – Buxoro viloyati.
4. **Aqilboyev Abdulxafiz** – Jizzax viloyati.
5. **Bozorova Sevinch** – Qashqadaryo viloyati.
6. **Qayumova Kamola** – Navoiy viloyati.
7. **Nabixonova Masturaxon** – Namangan viloyati.

8. **Mamarajabov Ma‘rufali** – Samarqand viloyati.
9. **Raxmatova Sevara** – Sirdaryo viloyati.
10. **Tojmurudova Xurshida** – Surxondaryo viloyati.
11. **O‘rmonova O‘g‘iloy** – Toshkent viloyati.
12. **Orifov Sardorbek** – Farg‘ona viloyati.
13. **Sabirova Surayyo** – Xorazm viloyati.
14. **Murodullayev Temurbek** – Toshkent shahri.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

«MARD O‘G‘LON» DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faollik ko‘rsatib, o‘zining bilim va iqtidori, intiluvchanligi va tashabbuskorligi, halol va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uning xalqaro nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan, yuksak ma‘naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat‘iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaatini va yurt istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan fidoyi va mard o‘g‘lonlarimizni munosib rag‘batlantirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo‘yicha komissiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi,

viloyatlar va Toshkent shahri qirg‘in iqtidorli yigitlarini fan, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot, san‘at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflari ilovadagi ro‘yxatga muvofiq ma‘qullansin.

2. «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga sovrindorlik diplomlari va ko‘krak nishonlari tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti sovrindorlarining har biriga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida pul mukofoti berilishini ta‘minlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti sohiblarining ibratli faoliyati, ularning noyob iste‘dodi va erishgan yutuqlarini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaromning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri ANAripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2022-yil 28-iyun

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ-297-son qaroriga ilova

«MARD O‘G‘LON» DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLANGANLAR RO‘YXATI

Kalbavev Arislanbek Bazarbayevich – Nukus shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi)

Mamutov Sherzod Azamatovich – Qoraqalpog‘ davlat universitetining 2-bosqich talabasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi)

Abduraxmonov Akmaljon Yunusbek o‘g‘li – Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining 10-sinf o‘quvchisi (Andijon viloyati)

Muxammadjonov Xojtakbar Zafarjon o‘g‘li – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 1-bosqich magistranti (Andijon viloyati)

Qo‘shayev Sharif Ergashevich – Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasining tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi guruh katta mutaxassisi (Buxoro viloyati)

Rajabboyev Lazzbek Zafarjonovich – Qoraqol tumanidagi Xalqaro matematika maktabining 11-sinf o‘quvchisi (Buxoro viloyati)

Rahmatov Murodjon Abdusamat o‘g‘li – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 3-bosqich talabasi (Jizzax viloyati)

Rashidov Uchqun Ro‘zimurod o‘g‘li – Jizzax shahridagi «Eagle Consulting Invest» mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori (Jizzax viloyati)

Qobilov Jurabek Musurmon o‘g‘li – Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘limi qutqaruvchisi (Qashqadaryo viloyati)

Raxmatov Anvar Raxmat o‘g‘li – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 4-bosqich talabasi (Qashqadaryo viloyati)

Babayev Mirdodojon Sharofjon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Navoiy bo‘limi tayanch doktoranti (Navoiy viloyati)

Qurbonov Oybek Muhammadqulovich – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining konchilik fakulteti o‘qituvchisi (Navoiy viloyati)

Mamadaliyev Komron Ulug‘bek o‘g‘li – O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 4-bosqich talabasi (Namangan viloyati)

Mirzaomidov Asilbek Shuxratjonovich – Namangan muhandislik-texnologiya institutining texnologik mashina va jihozlar kafedrasida katta o‘qituvchisi (Namangan viloyati)

Nurmamatov Asliddin Fazliddinovich – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh komandiri o‘rinbosari (Samarqand viloyati)

Samadov Aziz Iloxomovich – Samarqand shahridagi «Secure Trucks» mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari (Samarqand viloyati)

Musirmonov Tursunmurod Bahodir o‘g‘li – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining 4-bosqich talabasi (Sirdaryo viloyati)

Xayitboyev Yorqinjon O‘rmonali o‘g‘li – Guliston davlat universitetining 2-bosqich talabasi (Sirdaryo viloyati)

Abduraxmonov Abdumalik Abdumanom o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy qism guruh mutaxassisi (Surxondaryo viloyati)

Tojiyev Dilmurod Bahodir o‘g‘li – Toshkent davlat agrar universitetining 2-bosqich magistranti (Surxondaryo viloyati)

Abduraimov Yelnur Nurgaliyevich – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy xizmatchisi (Toshkent viloyati)

Turdiyev Alisher G‘ulom o‘g‘li – Nurafshon shahridagi bolalar va o‘smirlar sport maktabining akademik eshak eshish bo‘yicha murabbiysi (Toshkent viloyati)

Ismoilov Ulug‘bek Iloxomjon o‘g‘li – Toshkent tibbiyot akademiyasining 1-bosqich magistranti (Farg‘ona viloyati)

Qayumov Muhammadlaziz Ibroximjon o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchisi (Farg‘ona viloyati)

Abdikarimov Faxriddin Baxrom o‘g‘li – Xorazm Ma‘mun akademiyasining tayanch doktoranti (Xorazm viloyati)

Sabirov Shahzod Quadrat o‘g‘li – Urganch shahridagi «Data Union» mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori (Xorazm viloyati)

Jamolov Azimjon Ravshan o‘g‘li – Toshkent shahridagi Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 11-sinf o‘quvchisi (Toshkent shahri)

Stetsenko Nikita Andreyevich – O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 4-bosqich talabasi (Toshkent shahri)

O‘RINBOYEVLARGA “SPARK” BERILDI

Amudaryo tumanidagi “Do‘mon” ovulida yashovchi O‘rinboyevlar oilasi (O‘rinboyev Umidbek, Davlatova Muhabbat) “Yosh kitobxon oila” tanlovining respublika bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ularga Prezident sovg‘asi – “Spark” avtomashinasi topshirildi.

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi Imom Buxoriy nomidagi mahallada yashovchi G‘afurovlar oilasi 2. Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi “Yulduz” mahallasida istiqomat qiluvchi Xidirovlar oilasi 3-o‘rinni band qildi. Ular

50 va 30 million so‘mdan, finaldagi qolgan barcha ishtirokchilar 10 million so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Eslatib o‘tamiz, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida o‘tkazilgan tanlov “Besh tashabbus olimpiadasini” doirasida bo‘lib o‘tdi. Finalda respublikamiz hududlaridan jami 14 ta yosh oila ishtirok etdi.



Istiqlol farzandi — hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan kuch! Mamlakat ertasini o'zgartirishga qodir salohiyatli rahbar! Tengdoshlarini ish bilan ta'minlayotgan, uzoqni ko'ra oladigan tadbirkor shaxs! Bir so'z bilan aytganda u — O'zbekistonning yorqin kelajagi!

Nazarimda, "Yangi O'zbekiston" g'oyasining mohiyati ham yoshlar bilan ishlash borasida yaratilgan yangi tizimda yorqin namoyon bo'ladi. Eng avvalo, shaxsan Prezidentimizning o'zlari, qolaversa, vazir-u hokimdan tortib mahalla raisigacha yoshlar bilan ishlash — hammaning eng asosiy vazifasiga aylandi.

YOSHLAR

KUNINING YORQIN YILLIGI

Alisher SA'DULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati a'zosi,
Yoshlar ishlari agentligi direktori

Bu yil Yoshlar kunini mamlakatimizda beshinchi bor katta bayram qilyapmiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirishga doir muhim farmonidan to bugunga qadar ko'plab pillapoyalarni bosib o'tdik. Maqsadimiz yoshlar masalasida jarangdor shiorlar bilan emas, bevosita ularning o'zi bilan ishlash tizimini yaratishdir.

Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvarda imzolangan "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yagona vertikal tizim yaratildi. Respublikamizdagi har bitta mahallaga tengdoshlarining dard-u tashvishlarini yaxshi biladigan, ularning tilini tushunadigan yosh va intiluvchan kadrlardan saralab olindi.

Mahallalarda yetakchilar tomonidan "Yoshlar balansi" asosida aniqlangan ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar muammolari tahlil qilinib, "Yoshlar daftari" tizimi to'liq qayta ko'rib chiqildi va Vazirlar Mahkamasining alohida qarori qabul qilindi. Shu asosda "Yoshlar daftari"ga kiritiladiganlar yoshi 14–30 yosh etib belgilanib, ularning ijtimoiy toifalari 4 tadan 20 taga, yordam turlari esa 11 tadan 25 taga oshirildi.

Bugunga qadar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 173 ming 356 nafar ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlardan 115 ming 857 nafari qo'llab-quvvatlanib, shu maqsadda "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan 146,5 milliard so'm ajratildi. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlarning shaffofligini ta'minlash uchun "yoshlardaftari.uz" yagona elektron platformasi ishga tushirilib, "Yoshlar daftari"ni yuritish to'liq elektronlashtirildi.

Shu bilan birga, mahallalarda yoshlar tomondan bildirilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan hukumatning alohida qarori bilan "2022–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi" qabul qilindi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida joriy yilda har bir mahallada kitobxonlik, madaniyat va san'at, intellektual o'yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo'yicha keng ko'lami "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazilib, musobaqalarga 6,2 million yosh qamrab olindi. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi 8 ta yirik tanlov va musobaqa mahalla – sektor – tuman (shahar) – hududiy – respublika bosqichlarida tashkil etildi.

Misol uchun, madaniyat va san'at sohasida yosh iste'dodlarni kashf etish, ularni qo'llab-quvvatlash, katta sahnalarda o'z san'atini namoyish etishi uchun keng yo'l ochib berish maqsadida baxshichilik, an'anaviy ijro, opera, estrada yo'nalishlari bo'yicha 3 ta yosh toifasida (10–15 yosh, 16–22 yosh, 23–30 yosh) Bo'zatovda o'tkazilgan "Yoshlar ovozi" respublika tanlovida 238,4 ming nafar yosh ishtirok etdi. Bu ishtirokchilar soni o'tgan yilgiga nisbatan 80 barobar oshganini ko'rsatadi.

"Zakovat" intellektual o'yini ta'lim muassasalarida 11 mingga yaqin koordinatorlar, mahallalarda 55 mingdan ortiq jamoalar shakllantirilib, 396 ming nafar yoshlarni o'z atrofiga birlashtirgan intellektual yoshlar harakatiga aylandi.

Shu o'rinda bir narsani alohida aytishim kerak, yoshlar orasida shaxmat sport turiga qiziqish ortib boryapti. Yoshlar ishlari agentligi hamda "Sky Chess" shaxmat maktabi hamkorligida "Black and white" turniri ilk marotaba tashkil

etildi. "Markaziy Osiyo yoshlar forumi" doirasida mukofot jamg'armasi 110 000 000 so'mlik xalqaro yosh shaxmatchilar turniri o'tkazildi. Mintaqamizdagi 33 nafar yosh shaxmatchi kuch sinashgan bahslarda yigitlar va qizlar o'rtasida ham 1-o'rinlarni o'zbekistonlik yosh shaxmatchilarimiz qo'lga kiritdi.

Bu yil shaxmat bo'yicha yutuqlarimiz bisyor. Jumladan 21–29-may kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Sharja shahrida bo'lib o'tgan "5th Sharjah Masters International Chess Championship – 2022" xalqaro shaxmat turnirida yosh shaxmatchilar O'zbekiston sharafini himoya qildi. 31 davlatdan 100 ga yaqin shaxmatchi dona surgan musobaqada 9 imkoniyatdan 7 ochko to'plagan Nodirbek Abdusattorov chempionlar safidan joy oldi. Yaqinda Maldiv davlatida bo'lib o'tgan nufuzli G'arbiy Osiyo chempionatida ham o'zbekistonlik shaxmatchilar 2-o'rinni egalladi.

Sovrin jamg'armasi 880 million so'mlik "Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turnirida esa 327 ming 878 nafardan ziyod 4 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan shaxmatchi ishtirok etdi.

Bu yil barcha tanlov va musobaqalari-mizning sovrin jamg'armalari sezilarni darajada oshgan. Bu esa yoshlarni mutolaga, sport bilan muntazam shug'ullanishga, o'z ustida tinimsiz ishlashga undamoqda.

Yoshlar siyosatiga doir xalqaro aloqalarimiz ham jadal rivojlantirilmoqda. Joriy yilning may oyida Toshkent viloyatidagi "Astrum" IT akademiyasida "Markaziy Osiyo yoshlar forumi" o'tkazildi. Forum tadbirlarida ilm-fan va tadbirkorlik sohalarida faoliyat olib borayotgan 200 nafardan ortiq xorijlik yoshlar ishtirok etib, o'zaro tajriba almashishdi.

3–4-iyun kunlari Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi o'tkazilib, Buxoro shahri ilk marotaba Birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti deb e'lon qilindi.

O'ylaymanki, bu natijalar, qilinayotgan ezgu ishlar ortidan yoshlarimiz qalbida g'urur, o'zidan, yurtidan qoniqish hissi shakllanayotgani eng katta yutug'imizdir.

66

yilning eng yaxshi loyihasi

YOSHLAR BALANSI

MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA ENG SAMARADOR



Sherzod OLIMOV,

Yoshlar ishlari agentligining

Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i

– Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, respublikadagi barcha mahallalarda Yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

Dastlab yetakchilar faoliyati uchun zarur bo'lgan xona va texnikalar bilan ta'minlandi. Navbatdagi asosiy masala ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun bir qator yo'riqnomalar yaratish bo'ldi. Bunda bir qancha loyihalarni ishga soldi. Ular orasida samarali

dasturlardan biri bu – "Yetakchi kundaligi" telegram kanali tashkil etilganligidir. Kanalga respublikadagi 9 353 nafar yoshlar yetakchisi, sho'ba mudirlari va mas'ul xodimlari qamrab olindi. Telegram kanalda har kuni tizimli ravishda yetakchilar faoliyati bilan bog'liq 3-4 tadan test-savollari tuzilib, e'lon qilib borilmoqda.

Barcha mahallalarda 16-30 yoshlilar to'g'risida "Yoshlar balans" elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi tegishli toifalar bo'yicha yoshlar tasniflanib, muammolarini hal etish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish imkonini berdi. Shubhasiz, bu loyihani eng samarador loyihalar qatorida e'tirof etishimiz mumkin.

Go'zal RAHMONQULOVA,

Yangiyahot tumanidagi "Iqbol" mahallasi yoshlar yetakchisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi

Mana 5 oydirki, tanlagan kasbim mening shaxsiy rivojlanishimga, xalq duosini olishim, yoshlarni yurt ravnaqi yo'lida ilhomlantirishimga turtki bo'lmoqda.

Bugun bizning Yangiyahot tumanimizdagi 30 ta mahallada faoliyat olib borayotgan 30 nafar yoshlar yetakchisi chin ma'noda yoshlarning suyanchi va tayanchiga aylandi. Tumanimiz hokimi Hayot Inog'omov yoshlar masalalariga oid muammolar, yuzaga kelayotgan kamchiliklar, to'siqlarni bevosita biz, yetakchilar bilan gaplashib, muammoni joyiga borib bartaraf etmoqda. Tabiiyki, bunday tizim muammolar kamayishiga, yoshlar yetakchisining mavqeyi oshishiga xizmat qiladi.

Mahallamiz yangi tashkil topgani uchun yoshlar bilan ishlashga, ularni sportga qiziqitirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga sharoit yetarli emasdi. Mahallada to'garaklar uchun bo'sh bino va sport maydonchalari ham yo'q edi. Faoliyatimni boshlashim bilanoq mahalladagi bo'sh, qarovsiz yerni aniqlab, tumanimiz hokimiga va 2-sektor rahbari – tuman prokuroriga mahalla hududidan mini futbol maydonchasi qurish taklifini berdim. 4 oy oldin qarovsiz yotgan bo'sh yer bugun mahalla yoshlarini bir joyga jamlaydigan mini sport kompleksiga aylandi.

Sport kompleksida voleybol, basketbol, badminton maydonchalari, bolalar o'yingohi, shaxmat-shashka o'ynash joylari qisqa



YETAKCHINING BIRIMAN

muddatda qurilib, mahalla yoshlari uchun foydalanishga topshirildi. Quvonarlisi, bu majmua bugun na faqat sport ustalari va ixlosmandlarini, balki jinoyatga moyilligi bo'lgan, aniq bir faoliyati mavjud bo'lmagan va jamiyatga unchalik qo'shila olmaydigan uyushmagan yoshlarni ham o'z bag'rida jamlay oldi.

Faoliyatimdagi yana bir quvonchli kun – joriy yil 18-fevralda tumanimizga tashriflari davomida davlatimiz rahbariga mahallamiz yoshlari uchun qilgan ishlarim, natijalar va maqsad-rejalarim to'g'risida so'zlab bergandim. Prezidentimiz ishlarimdan mamnun ekanini bildirib, faoliyatimga muvaffaqiyat tilagandilar.

O'shanda rejalarim qatorida zamonaviy kasblarga ishtiyoqi baland yoshlarni bir joyga jamlab, mahalla hududidan IT markaz tashkil qilish taklifini bergandim. Buning natijasida har uch oyda 10 nafar mahalla yoshlariga IT sohasining boshlang'ich bilimlari berilib, yuqori o'quv markazlariga yo'naltiriladi.


Bugun "Yoshlar jamg'armasi" mablag'lari hisobidan olib berilgan 10 ta zamonaviy kompyuter yordamida ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlariga bepul kasb o'rgatilmoqda. Bunday zamonaviy kasb o'rgatuvchi o'quv kurslari juda ko'p, lekin biz tashkil etgan kursning ahamiyati ta'lim olish bepulligi

va birinchi navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari va uyushmagan yoshlarni qamrab olganidir.

Prezidentimizning 2022-yil mart oyidagi farmoniga binoan, "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Shaxsan davlatimiz rahbarining qo'llaridan davlat mukofotini qabul qilib oldim. Bugun ko'ksimdagi ushbu e'tirof belgisi menga ikki karra motivatsiya berdi. Bir o'zbek qizining Vatan ravnaqiga sadoqat bilan xizmatga bel bog'laganiga shuncha e'tirof, e'tibor va yuksak ishonch bizning jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotining yangi bosqichi – Yangi O'zbekistonni barpo etish poydevoridir.

66

BUGUN "YOSHLAR JAMG'ARMASI" MABLAG'LARI HISOBIDAN OLIB BERILGAN 10 TA ZAMONAVIY KOMPYUTER YORDAMIDA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ OILA FARZANDLARIGA BEPUL KASB O'RGATILMOQDA.



Dunyoda taraqqiy etgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy etadi.
Asir va zabun bo'lganlar esa ilmsizlikdan.

Mahmudxo'ja BEHBUDIY

*Qadamidan o't chaqnab, ko'zlari yonib turgan aziz yoshlar!
Barchangizni 30-iyun — Yoshlar kuni bilan samimiy qutlaymiz! Sizlar-
ning ilm olish, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishish yo'lidagi intilish-
laringizni qo'llab-quvvatlashga, bu borada zarur shart-sharoitni yaratib
berishga hamisha tayyor ekanimizni ta'kidlashdan mamnunmiz.
Bayramingiz qutlug' bo'lsin!*

Buxoro davlat tibbiyot instituti jamoasi



“

yilning eng yaxshi loyihasi

BESH TASHABBUS OLIMPIADASI

MADANIYAT, SAN'AT, SPORT, KITOBXONLIK KABI 14 DAN ORTIQ TANLOV VA MUSOBAQALARNI QAMRAB OLDI



Indira XOLDOROVA,

Yoshlar ishlari agentligining

Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i

– Yoshlarni "Besh tashabbus olimpiadasi"ga to'liq qamrab olish bo'yicha yaratilgan "beshtashabbus.uz" sayti va telegram ijtimoiy tarmog'idagi bot orqali respublikamizning turli hududlaridan qariyb 6 million nafardan ortiq yoshlar onlayn ro'yxatdan o'tdi. Olimpiada doirasida o'tkazilgan tanlov va musobaqalarda 5 million nafarga yaqin yoshlar qatnashdi.

"Davlat xavfsizlik xizmati kubogi" doirasidagi futbol va mini-futbol musobaqalari 16-30 yoshdagi 291 ming nafar yoshlarni birlashtirgan bo'lsa, "Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat musobaqasida 327

878 nafar yoshlar va nuroniyalar ishtirok etdi. Sportning voleybol, yengil atletika, stritbol, vorkout, shashka, stol tennis turlari bo'yicha musobaqalar jami 945 mingdan ortiq yoshlarni, "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovi 274 267 nafar, "Zukko kitobxon" intellektual o'yini 200 916 nafar, Kibersport musobaqasi 326 138 nafar, "Yosh kitobxon oila" tanlovi 55 958 nafar, "Mushoira" tanlovi 267 968 nafar, "Yoshlar ovozi" tanlovi 238 mingdan ortiq yoshlarni o'z atrofida jamlay oldi.


"Besh tashabbus olimpiadasi"dagi hech bir loyihani alohida e'tirof etishning imkoni yo'q. Sababi har biri kutilgan natijalarni berdi. Har bir yo'nalish mahalladagi barcha yoshlarni qamrab oldi.



SHERXON AZAMATOV,

Paxtachi tumanidagi "Amirabod" mahallasi voleybol jamoasi sardori.

– 14 yoshimdan voleybol bilan shug'ullanaman. Birinchi ustozim Shahobiddin To'xtapov'latov bo'ladi. Quvonarlisi, mahallamizda mashg'ulot uchun imkoniyatlar yetarli. "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan voleybol musobaqasining respublika bosqichida faxrli birinchi o'rinni oldik. Finalda kuchsizlar bo'lmaydi. Shu bois o'yinlar ham oson bo'lmadi, murosasiz kechdi. Barcha kuchli, tajribali jamoalar to'plandi. Ustozimizning ko'rsatmalari, jamoamizdagi hamma o'yinchilar o'z ishlarini qoyillatib bajargani uchun g'alabaga erishdik. Eng muhimi, musobaqa jara-yonida katta taassurotlarga ega bo'ldik, ko'plab do'stlar ortirdik.



ZOKIR SHERMATOV,

Shayxontohur tumanidagi "Chorsu" mahallasi kibersport jamoasi sardori.

– Kibersportning "CS:GO" turi bo'yicha ikki yildan beri shug'ullanaman. Hammasi qiziqishdan boshlangan. Men shunday qoidaga amal qilganman: biror ishni boshladimmi eng yuqori nuqtasiga chiqmagunimcha to'xtamayman. Tinimsiz izlanaman, mashq qilaman, ustozlardan o'rganaman. Dastlab mahalla bosqichida shunchaki qiziqish sabab ishtirok etgandim, g'olib bo'lgach esa respublikada ham oliy o'rinni olaman, degan maqsadni oldimga qo'ydim. Bugun bunga erishib turibman. Ilk bosqichdan o'tgach, jamoa a'zolari bilan tun-u kun mashq qildik. Albatta, bu bosqichga yetib kelish, finalda g'oliblikni qo'lga kiritish oson bo'lmadi. Shuncha mehnatning rohatini ko'rish esa juda ajoyib. Jamoaning mahorati yaxshi bo'lsa, jamoa bilan ahillikda kurashilsa, yuqori marralarni zabt etish mumkin!



IRODA SHOKIROVA,

Kattaqo'rg'on shahridagi "Bahoriston" mahallasi stritbol jamoasi sardori.

– Stritbol bo'yicha musobaqa birinchi marta tashkil etilmoqda. Bu sport turiga qiziqishim sabab qatnashdim. Finaldagi barcha raqiblar juda kuchli edi. O'z hududining eng kuchlilari, liderlari jam bo'lgandi. Har bir o'yin qiyin bo'ldi va katta mashaqqat, kuch talab etdi. O'yinlar murosasiz va keskin kurashlarga boy bo'ldi. Har bir ochko uchun "ayovsiz jang" olib bordik. Bu g'alaba faqat men yoki jamoaning g'alabasi emas, bu bizni qo'llab turgan "Bahoriston" mahallasining yutug'idir.



FARANGIZ ROFIYEVA,

Urgut tumanidagi "Andok" mahallasi shashka jamoasi sardori.

– "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Jizzax shahrida o'tkazilgan shashka musobaqasining final bosqichi quvonchli voqealarga boy bo'ldi. Bunday natijaga erishaman deb o'ylamagandim. Ustozim Shohyusuf Rofiyevdan o'rganganlarim va tayyorgarlik jarayonlarida olgan bilimlarim musobaqada ustunlik berdi va g'oliblikni qo'lga kiritdim. Jizzaxda shashka musobaqasi bilan birga sayohat uchun ham katta sharoit yaratildi. Biz davlat arbobi Sharof Rashidov haykali poyiga gul qo'ydik, Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim uy-muzeylariga sayohat qilib, ularning ijodi haqida bilimlarga ega bo'ldik. Jizzaxga tashrif xotiramda bir umrga muhrlandi.

BUGUN YOSHLAR ITTIFOQI TASHKIL TOPGAN KUN



Shavkat ZAYNIDDINOV,

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi raisi

Yoshlar – jamiyatimizning buguni va ertasi, eng katta boyligi, bebaho xazinasi. O'zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyati aynan jamiyatning eng muhim qatlami, ya'ni yoshlar bilan bog'liq bo'lib, bugungacha yoshlar siyosati doirasida qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlashga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Xabaringiz bo'lsa, Yoshlar ittifoqi 2017-yil 30-iyun kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan tashkil topgan. Shu kundan e'tiboran bu sana mamlakatimizda Yoshlar kuni sifatida keng nishonlanadi.

Har yili iyun – "Yoshlar oyligi" doirasida yirik tanlovlar, intellektual o'yinlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari hamda gala-konsertlar tashkil etiladi. Bu yil ham yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish, intellektual salohiyatini oshirish, sportga qiziqishini qo'llab-quvvatlash

va munosib rag'batlantirish maqsadida Yoshlar ittifoqi 5 ta yirik loyiha o'tkazdi. Bular "Bolalar ligasi" sport musobaqasi, "Eng namunali maktab Sardorlar kengashi", "Eng namunali mahalliy Sardorlar kengashi" tanlovlari, "Munozara" intellektual turniri, "Zukko kitobxon" intellektual tanlovi, "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi bo'lib, mazkur loyihalarda nafaqat o'quvchi va talabalar, balki mahalla yoshlari ham katta qiziqish bilan ishtirok etdi.

Yoshlarning mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda Xalq ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda "Munozara" intellektual turnirini tashkil qildik. Turnirga 24 297 nafar yoshlar jalb etilib, respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 48 nafar yoshlardan iborat 16 ta jamoa o'zaro bellashdi. Namangan viloyati jamoasi turnirning mutlaq g'olibiga aylandi.

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan "Yoshlar oromgohi"da o'tkazilgan "Eng namunali maktab Sardorlar kengashi" tanlovida ham 143 024 nafar ishtirokchi qamrab olindi va yakuniy natijaga ko'ra, Farg'ona viloyati Rishon tumanidagi 20-maktab Sardorlar kengashi g'oliblikni qo'lga kiritdi. "Eng namunali mahalliy Sardorlar kengashi" tanlovida Buxoro viloyati Kogon shahri va Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani Sardorlar kengashi faollik ko'rsatdi.

Yoshlar oyligi doirasidagi barcha loyihalarni keng qamrovda, katta tayyorgarlik ko'rilgan holda o'tkazildi. Istandimki, yoshlarimiz har bir imkoniyatdan unumli foydalanib, o'z kelajagi va yurtimiz ravnaqi uchun doimo harakatda bo'lsa. Buning uchun esa biz bor imkonimiz bilan yordam berishga tayyormiz.

"YANGI NAFAS"

26-iyun kuni Toshkent, Chirchiq, Guliston, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida "Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda birga yuguramiz!" shiori ostida o'tkazilgan "Yangi nafas" yugurish marafoni chin ma'noda sport nafasi bo'ldi.

25 ming nafardan ziyod ishtirokchilar orasida Oksana Chusovitina, Shahram G'iyosov, Asal Saparbayeva, Ravshan Ermatov, Dilshod Sobirov, Ruslan Nuriddinov va Akbar Jo'rayev kabi mashhur sportchilar ham yugurish marafonida qatnashdi.

Tadbirda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi prezidenti Tomas Bax ishtirok etib, yosh avlodni sportni hayotlarining ajralmas qismiga aylantirishga da'vat qildi.

Marafonda asosiy sovrinli o'rinlardan tashqari ishtirokchilar "G'alabaga iroda uchun", "Eng yosh ishtirokchi", "Eng yoshi katta ishtirokchi" kabi nominatsiyalar bo'yicha taqdirlandi.

Sport bayrami raqslar fleشمobi va estrada yulduzlari konsert dasturi bilan yakunlandi.

Sardor SA'DULLAYEV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

“

yilning eng yaxshi loyihasi

ZUKKO KITOBXON

381 024 NAFAR YOSH ISHTIROKCHI

– O'zbekiston Yoshlar ittifoqining joriy yil boshidan beri hayotga tatbiq etgan eng samarali, yoshlar katta qiziqish bilan qabul qilgan, minglab kitobxonlarni kashf qilishga yordam bergan loyihasi "Zukko kitobxon" intellektual tanlovidir.

Loyiha yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning o'zbek va jahon adabiyotiga qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash hamda intellektual salohiyatini

Aziza Ahmadova,

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi Axborot xizmati bo'limi boshlig'i

oshirish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida tashkil etildi. Uch yo'nalish (mahalla yoshlari, ichki ishlar organlari xodimlari va onlayn)da o'tkazilgan tanlov 36 871 ta jamoa o'rtasida tashkil etilib, jami 381 024 nafar yoshlar qamrab olindi.

Quvonarlisi, mazkur tanlov ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida ham 3 bosqich (tuman, viloyat va respublika)da o'tkazildi. Tanlovning bu yo'nalishiga 4 200 nafar ichki ishlar organlari xodimlari jalb etildi.



66

yilning eng yaxshi loyihasi

TALABAGA MADAD

TALABALAR UCHUN ASL RAG'BAT

Umidulla SATTOROV,

Yoshlar ishlari agentligining Ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash va volontyorlikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i

Boshqarmamiz o'tgan bir yilda bir qancha muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirdi. Ta'lim va mutaxassislik ko'rgazmasi, "Xalqaro fan olimpiadalari tayyorgarlik" maxsus o'quv bazasi, "Yilning eng faol yoshlar yetakchisi", "Imkoniyat", "Talaba yoshlar festivali" "Is'hoqxon Ibrat - tillar oromgohi", "Bo'lajak olim", "O'zbekiston uchun 100 g'oya" shular jumlasidan.

Bular orasida yoshlarni keng qamrab olo-

gan, chin ma'noda manfaatli deb e'tirof etilgan loyihamiz bu - "Talabaga madad"dir! Ushbu loyiha sabab ilm olishga ishtiyoqi baland bo'lsa-da, moddiy qiyinchiliklar sabab o'qishga imkon topa olmayotgan minglab yoshlarning muammolari ijobiy hal etildi. 2021-yilda 14 370 nafar yoshning ta'lov-shartnoma pullari to'lab berilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 15 690 taga yetdi. Loyiha e'lon qilinganidan joriy yilning iyun




oyigacha "Talabaga madad"dan madad olgan yoshlar 30 060 nafarni tashkil etmoqda. Yoshlar ishlari agentligi ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doim tayyor!

YOSH SHAXMAT JAVOHIRLARI

Dilnoza ABDUHAMIDOVA,
Shahribonu RAHMATOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbirlari

Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Shaxmat federatsiyasi hamda "Sky Chess" shaxmat maktabi hamkorligida "Yoshlar oyligi" doirasida Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi To'da-ko'l dam olish maskanida "Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turnirining final bosqichi o'tkazildi.

O'zbek shaxmati olamidagi eng shov-shuvli loyiha - To'da-ko'l festivalida O'zbekiston shaxmat tarixidagi eng yorqin yulduzlar, grossmeisterlar, faxriy ustozlar aql gimnastikasi atrofida birlashdi.



lashdi. E'tiborlisi, musobaqalarda nogironligi bor yoshlarimiz ham faol qatnashdi.

Finalda g'olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi. **Birinchi o'ringa 50 million so'm, ikkinchi o'ringa 30 million so'm, uchinchi o'ringa 20 million** va yakuniy bosqichdagi qolgan barcha ishtirokchilarga 10 million so'mdan pul mukofoti topshirildi.

Turnirda havaskor toifasida qatnashib, o'zidan yoshi katta ishtirokchilardan ham ustun kelgan 10 yoshli Javohir Bozorov 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Javohir 2011-yil 17-sentabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Hozir Yangiheyot tumanidagi "O'lchazor" mahallasida istiqomat qiladi. Ustozlari Sabohat Zayniddinova, Sirojiddin Zayniddinov va Yegin Vladimirdan olgan saboqlari uning shaxmatchi sifatida o'sishiga sabab bo'ldi. Yosh shaxmatchi ko'plab ichki va xalqaro musobaqalar ishtirokchisi hamda sovrindori. U o'z yosh toifasida 3 karra O'zbekiston chempioni, shu jumladan, 12 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida klassik va rapid yo'nalishida amaldagi O'zbekiston chempioni hisoblanadi. 2019-yil Xitoyda bo'lib o'tgan bolalar o'rtasidagi jahon chempionati ishtirokchisi, 2022-yilda bolalar va o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan G'arbiy Osiyo chempionatida klassika va blits yo'nalishida to'rtinchi o'rin, 2022-yilgi



Georgiy Azamov xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir "B" guruhida kumush medal sohibi bo'lgan.

Mahbuba ISMATOVA,
Javohirning onasi:

- Javohir hayotda quvnoq, lekin mashg'ulotlar va o'yinlar davomida nihoyatda jiddiy qiyofaga kirib qoladi. Maktabda ham a'lo baholarga o'qiydi. Boshqa bolalar kabi do'stlari bilan futbol o'ynashni, skeyt uchishni xush ko'radi. Lekin istirohat bog'ida dam olish yoki shaxmat turnirida qatnashish tanloviga duch kelsa, hech ikkilanmay shaxmatni tanlaydi. Shaxmat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Mag'lubiyatni qabul qilishi og'ir kechadi va odatda alamli mag'lubiyatdan so'ng yig'isini yashir olmaydi. Orzusi shaxmat bo'yicha mutlaq jahon chempioni bo'lish.

Shaxmat musobaqasining respublika bosqichida futbol, voleybol, badminton, stol tenisi, arqon tortish kabi sport turlari bo'yicha yoshlar musobaqalari, "Yosh oshpazlar bellashuvi", kater, katamaran, motorli qayiq, skuter, gidroplan, yelkanli qayiqlarda turli musobaqalar, g'oliblarni taqdirlash, konsert dasturlari, gulxan atrofida iste'dodli, havaskor yoshlar bilan jonli ijrodagi bellashuvlar bo'lib o'tdi.

Tadbirlar davomida "Havo sharlari" ko'rgazmasi, yakunda esa gala-konsert hamda mushakbozlik tomoshalari tashkil etildi.

1-IYULDAN

aholini ro'yxatga olish bo'limlari tashkil etiladi

Toshkent shahar kadastr boshqarmasi bilan hamkorlikda poytaxtdagi mavjud 575 ta mahalla fuqarolar yig'inlari xaritalari bugungi kun holatiga yangilanib, mahallalar kesimida yangilangan xaritalarning haqiqiy holatga mosligi reja asosida bosqichma-bosqich o'rganilmoqda.

Toshkent shahridagi 12 ta tumanda targ'ibot va tashviqot ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari, mahallalar hamda tashkilotlarda aholini ro'yxatga olish bo'yicha targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilgan. Aholi gavjum joylarda joylashtirilgan LED ekranlarga aholini ro'yxatga olish bo'yicha tayyorlangan videroliklar muntazam qo'yib borilmoqda.

2022-yil 1-iyuldan boshlab barcha tuman va shaharlarda aholini ro'yxatga olish bo'limlari tashkil etilib, bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'i o'rinbosari va bosh mutaxassis lavozimlari ta'sis etiladi. Bu lavozimlarga xodimlar 2024-yilning 1-yanvariga qadar mo'ljallangan shartnomaga muvofiq ishga qabul qilinadi.

Sardor SHODIYEV,
Yashnabod tumani statistika bo'lim boshlig'i



Alisher SA'DULLAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi direktori:



- "Yoshlar ishlari agentligi kubogi"ning shaxmat musobaqalari ilk bor mahalla-sektor-tuman (shahar) - viloyat - respublika bosqichlarida tashkil etildi. Respublikamiz shaxmat tarixida bunday besh bosqichli musobaqa bo'lib o'tmagan edi. Biz bu musobaqani tashkil etishimizdan maqsad joylardagi havaskor shaxmatchilarning ishtirokini ta'minlagan holda ularning sportga qiziqishini yanada oshirish va munosib taqdirlashdan iborat. Turnirning final bosqichida 327 ming 878 nafardan ortiq 4 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan ishtirokchilar orasidan saralangan eng kuchli 56 nafar shaxmatchi g'oliblik uchun bel-

“

Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay.

Imom al-BUXORIY

Butun O‘zbekiston yoshlari, jumladan, talabalarni yurtimiz bo‘ylab keng nishonlanayotgan Yoshlar kuni bilan qizg‘in muborakbod etamiz.



Siz, aziz yoshlarga shu muqaddas Vatanning porloq kelajagi, mustahkam tayanchi ekaningizni chuqur his etgan holda o‘z oldingizga qo‘ygan yuksak marralarni zabt etishingizda omadlar yor bo‘lishini tilab qolamiz!

**Qo‘qon davlat pedagogika
instituti jamoasi**

66

IMKON / MAQSADLARGA ELTAR

yilning eng yaxshi loyihasi



Ulug'bek SULTONOV,

Yoshlar ishlari agentligining
Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

– Yoshlar ishlari agentligining Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan imkoniyati cheklangan, aslida esa cheksiz imkoniyat sohiblari bo'lgan nogiron yoshlarning iste'dod va salohiyatini to'la-to'kis namoyon etishlariga ko'maklashish uchun "Intellekt", "Imkon", "E'tibordagilar" hamda "Matonat" kabi 10 dan ortiq ijtimoiy loyiha amalga oshirildi.

Ularda 1000 nafarga yaqin yoshlarimiz ishtirok etdi.

Eng muvaffaqiyatli loyihamiz esa nogironligi bor, 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlarni

zamonaviy kasblarga o'qitish va ular orqali daromad olishlariga ko'maklashishni maqsad qilgan "Imkon" grantidir. IT sohasining 5 ta muhim – "Veb dasturlash", "Grafik dizayn", "Moushn grafika", "Dijital marketing", "SMM" kabi yo'nalishlarida bepul o'qitishni o'z ichiga olgan loyihada qatnashish istagini bildirgan 450 nafar yoshdan 180 nafari yo'nalishlar kesimida ta'lim olib, bugungi kunda 100 nafari o'z sohasining mutaxassisi sifatida ish faoliyatini boshlab yuborgan. Kelgusida ham ushbu loyiha orqali yanada ko'p yoshlarga imkon berishni maqsad qilganmiz. Va, albatta, bu maqsadimizga ortig'i bilan erishamiz.

FIKIRILASH – MUAMMONING YECHIMI

Mahliyo SOBIROVA,

"Imkon" loyihasi ishtirokchisi

Men o'zimni qiyinchilik ko'rgan inson deb hisoblamayman. Ota-onam, opam va ukam, yaqin do'stlarim – hamma-hammasi doim yonimda meni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday ota-ona va yaqinlarim borligiga shukr aytaman. Moliyaviy qiyinchilik ko'rmaganman. Faqat sog'lik tomonidan ozgina qiynalgan bo'lishim mumkin. Unda ham mendan ko'ra ota-onam ko'proq qiynalgan bo'lsa kerak.

Kichkinaligimda ko'zim bilan bog'liq muammo bo'lgan. Jarrohlik amaliyotini o'tkazishgan, lekin muvaffaqiyatli bo'lmagan. Shuning uchun 5-6 yoshimdan ko'z muolajasiga borar edim. Ko'rish qobiliyatim pastligi sabab qayta jarrohlik amaliyoti o'tkazilmagan. 18 yoshga kirmagunimcha operatsiya qilishni taqijlashgan.

12 yoshimda esa qandli diabetga chalinib qoldim. Bu kasallikni bitta so'z bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bizning oilada mengacha hech kim bunday kasallikni bilmagan. Ota-onam buni qabul qilishga qiynalishgan. Men esa oddiy qabul qilganman. Aslida masalaga muammo sifatida qaramayman, fikrlab yechim izlayman. Mana, qandli diabet bilan 16 yildan beri "do'stman".

Fotografiya sohasiga qiziqaman. Yaqinda Toshkent shahar hokimligi tomonidan "Feel Tashkent" tanlovi o'tkazildi, unda 300 dan ziyod fotograf 1000 dan ortiq rasmlari bilan ishtirok etdi. Ovoz berish uchun 50 ta rasm tanlab olindi va 9 tasi muko-



fotlandi. Mukofotlanganlar orasida men ham "Tomoshabinlar tanlovi" nominatsiyasida 3-o'rinni qo'lga kiritdim. Hali havaskor fotografman deb o'ylayman va bu bosqichda shunday muvaffaqiyatga erishganim keyingi faoliyatim uchun muhim qadam bo'ldi.

Yana bir yutug'im, o'tgan yili Yoshlar ishlari agentligi hamda "Najot ta'lim" markazi hamkorligida o'tkazilgan "Imkon" loyihasi

doirasida tashkil etilgan grantni qo'lga kiritib, bepul o'qdim. SMM menejerlik kursida olti oy meni va imkoniyati cheklangan bir qancha yoshlarni o'qitishdi. Kurs davomida ko'p ko'nikmalarga, yangi do'stlarga, yaxshi xotiralarga ega bo'ldik.

Kursni tugatganimdan keyin diabetlar uchun "Mahliyo Dialife" telegram kanalini ochdim. Hozir shu kanalimni yuritish asnosida o'zimga o'xshagan diabetga chalinganlarga qo'limdan kelganicha yordam beraman. Xullas, kunimning asosiy qismini o'zimga o'xshagan insonlarga yordam berishga sarflayman. Bu men uchun zavqli

va katta motivatsiya beradi. Bundan ko'p odamlar xursand.

Yevropada Xalqaro Diabet federatsiyasi bor. O'sha federatsiya har yili Yevropaning turli shaharlarida bemorlar uchun yozgi oromgoh uyushtiradi. O'sha oromgoh – "IDF Europe Youth Leadership Camp 2022" bu yil Yevropaning Polsha davlatida bo'lyapti. U yerga har bir davlatdan bittadan bemorni yig'ib, ularga foydali maslahatlar berishadi, malaka va bilimlar almashiladi. Bu yilgi oromgohda O'zbekiston nomidan ishtirok etayotganim yutuqlarim sirasiga kiradi. Iyul oyida Polshada 7 kun dam olib, o'zim uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'rganib, o'zimizdagi diabet bemorlarga o'rgatish niyatim bor.

Fikrlayman, shukr qilaman. Shu tamoyilga tayanib, hech kimdan kam emasligimni hamisha his etaman.

Qirmizoy HAKIMOVA yozib oldi.

NATIJA

O'zbekistonda nogiron yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash e'tibor markazidagi masala. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandleligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu sohada olib borilayotgan ishlarga yanada jadal tus berdi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 500 nafargacha nogiron yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida subsidiya ajratish tizimi joriy etilgan.

Respublikada jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari soni:

Ularga:

21685

nafar o'quvchi qamrab olingan

14059


nafari uyda yakka tartibda ta'lim oladi.

86

“

Aql ila olam yuzin obod qil,
Xulq ila olam yuzin shod qil.

Alisher NAVOIY



Aziz yoshlar, talabalar! Sizlarni yoshlik, shijoat va ko'tarinkilik bayrami – Yoshlar kuni bilan qutlaymiz! Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renesans davriga poydevor qo'yishdek mas'uliyatli jarayonda sizlarga ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz!

**Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti jamoasi**




66

yilning eng yaxshi loyihasi

YOSH KITOBXON

3 MILLION ISHTIROKCHI



Qandil BOBOQULOV,

Yoshlar ishlari agentligining Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

– Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish orqali yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida Yoshlar ishlari agentligi qator loyihalarni amalga oshirmoqda. "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Bolalar uchun eng yaxshi kitob", "Mushoira" kabi tanlovlarning mavjudligi quvonarli holat. Bularning ichidan bittasini alohida ajratib ko'rsatish kerak bo'lsa, albatta, yilning eng zo'r loyihasi sifatida "Yosh kitobxon"ni e'tirof etgan bo'lar edim.

"Yosh kitobxon" tanlovi yo'lga qo'yilgan vaqt (2017-yil)

dan buyon hozirgacha 3 million nafardan ziyod yoshlarni qamrab olib, respublika bosqichida ishtirok etgan 196 nafar yoshlar ichidan eng yaxshi kitobxonlarga Prezident sovg'asi sifatida "Spark" avtomobili taqdim etildi. Mamlakatimizning eng chekka va olis hududlaridan g'oliblikni qo'lga kiritgan 5 nafar yosh kitobxon 2021-yilda davlat mukofotlari bilan taqdirlangani hamda 5-mavsumning o'zida tanlovda qatnashish uchun 555 ming nafardan ortiq yoshlar ariza topshirgani loyihaning qay darajada samarador ekanini ko'rsatib turibdi. Keyingi yil bu ko'rsatkich yanada oshishiga va kitobxonlar o'rtasida raqobat har galgidan kuchliroq bo'lishiga ishonaman.

HUDUDLARDAN TASHABBUSLAR

Gazetamizning "Yoshlar siyosati" ruknida Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari ish tajribasi, loyihalari yoritib borilyapti. Ular ichida bir-biriga o'xshamaydigan, o'z samarasini juda tez ko'rsatgan loyi-

halar borki, ularni e'tirof etmasak bo'lmas. Bu kabi tashabbuslar boshqa viloyatlar ish tajribasida ham qo'llanilib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda bir yo'riqnoma bo'lsa, ajab emas.

"MEDIA BOOTCAMP"

Farg'ona viloyatida tatbiq etilayotgan bu loyihaning asosiy maqsadi yoshlar orasida mediasavodxonlikni oshirish. Loyihada qatnashish istagida bo'lgan 315 nafar yoshdan, 63 nafari tanlab olinib, ularga fotografiya, SMM, videoproduction, grafik dizayn, veb dasturlash yo'nalishlari bo'yicha o'quvlar tashkil etildi. Eng faol yoshlarga maxsus sertifikatlar topshirildi.

INKLYUZIV TA'LIM

Xorazm viloyati boshqarmasi "Inklyuziv ta'lim markazi" faoliyatini yo'lga qo'ydi. Autizm, daun sindromiga chalingan, nogiron yoshlarning muammolarini yechishga amaliy yordam berish maqsadida tashkil etilgan bu loyiha 400 nafardan ziyod yoshlarni qamrab oldi. Hozirgi kunda viloyatda 300 nafardan ortiq nogiron bolalari bor oilalar bilan ish olib borilmoqda. Bugungacha Inklyuziv ta'lim to'garigiga 221 nafar bola keldi, 110 nafar bolaning yashash joyiga borib, mashg'ulot va amaliy yordamlar ko'rsatilmog'ida.



XORIJIY TIL O'RGATILMOQDA

Namangan viloyatida xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha ta'lim sifati past bo'lgan 34 ta (tuman markazlaridan 27 ta, olis hududlardan 7 ta) maktab o'quv mashg'ulotlari olib borish uchun tanlab olinadi. Mashg'ulotlarga hududlardagi 109 ta maktabning 680 nafar "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kirgan va kam ta'minlangan oila farzandlari (10-sinf) o'quvchilari jalb etildi.



QORAQALPOG'ISTONDA YOSHLAR KOMPLEKSLARI

Qoraqalpoq yoshlarining madaniyat va san'at, sport bilan muntazam shug'ullanishi, kitob o'qishiga sharoit yaratish maqsadida mahalliy byudjet va homiylar mablag'lari hisobidan mahallalarda yoshlar uchun qulay joylarda "Yoshlar komplekslari" barpo etilyapti.

Jumladan, birinchi tipdagi "Yoshlar kompleksi" Amudaryo tumanida 20 ta, Beruniy va Qonliko'lda 3 tadan, Qorao'zakda 1 ta, Qo'ng'irotda 6 ta, Mo'ynoqda 12 ta, Nukus tumanida 8 ta, Taxiato'shda 13 ta, Taxtako'pir tumanida 8 ta, Chimboyda 20 dan ortiq, Ellikqal'ada 6 ta, Nukus, Qorao'zak, Qo'ng'iro't tumanlarida esa ikkinchi tipdagi "Yoshlar komplekslari" tashkil etildi.

FAOL YETAKCHI YOSHLARGA RAG'BAT

Toshkent viloyatida faol yetakchi yoshlarni tizimli rag'batlantirishga yangicha yondashuvlar joriy etilmog'ida.

Unga ko'ra, faol yetakchilarga pul mukofotlari beriladi, ilg'orlar tarixiy shaharlarga sayohatga yuboriladi, ularning ota-onalariga faol va shijoatli farzand o'stirgani uchun tashakkurnoma bildiriladi. "Yoshlar daftari"ga kiritilganlarga ko'mak ko'rsatish bo'yicha reyting shakllantirilib, eng yuqori natija ko'rsatgan mahalla yoshlar yetakchilari rag'batlantirilmoqda.




Shahruxa SATTOROVA tayyorladi.

“

Yoshlikda zahmat chekib, ilm o'rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan.

Husayn Voiz KOSHIYI



Aziz O'zbekiston yoshlari, sizlarni yurtimizda keng nishonlayotgan Yoshlar kuni bilan chin qalbdan muborakbod etamiz!

Zamonaviy bilimlarni egallashingiz, ezgu tashabbus va g'oyalaringizni qo'llab-quvvatlash, orzularingizni ro'yobga chiqarishdek sharaflil ishlarda sizlarga yelkadosh bo'lish bizga doim faxr bag'ishlaydi.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filiali jamoasi

YOSHLAR 1 YILDA NIMALARGA ERISHDI?

Besh yildirki, mamlakatimizda 30-iyun – Yoshlar kuni sifatida katta tantanalar bilan nishonlanadi. Bu sana ular uchun faqatgina bayram emas, balki o'tgan bir yil yakun-

lari, sarhisob pallasi hamdir. Bir yil ichida yoshlar qanday yutuqlarga erishdi? Biz kitobxon, ijodkor, bo'lajak olim-uzozuvchi yoshlarning bu boradagi fikrlari bilan qiziqdik.




SHAHZODBEK RUZMETOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti:

– Bungungi kunda har bir o'zbekistonlik yosh uchun 30-iyun alohida o'ringa ega.

Bir yil davomidagi yutuqlarim orasida Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'lganim va shundan so'ng imtiyoz bilan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistraturasiga grant asosida o'qishga qabul qilinganim alohida o'ringa ega. Faoliyatim davomida 30 ga yaqin ilmiy maqola yozdim, Qozog'iston, Polsha, Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya kabi o'nlab davlatlarda maqolalarim chop etildi.

Yoshlar kunida tengdoshlarimga "Biz yoshmiz, kuch-g'ayratimiz qo'limizda, dilimizda olov yonyapti, shu olovni gurullatib, Uchinchi Rennessans mash'alasini yoqaylik", degim keladi.



NIGORA ASQARALIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi:

– Hayotimdagi eng katta burilish nuqtasi bu "Yosh kitobxon" tanlovidagi kichik g'alabam bo'lgan. 2018-yildan buyon bu tanlovda qatnashib, yaxshi natijalar qayd etib kelyapman. 2019-yili respublika bosqichida 3-o'rinni oldim. 2021-yilning yoz oyida "Duel" yosh ijodkorlar tanlovida qatnashish nasib qildi. She'rlarim Turkiyada "Turkçe'nin dünyadaki Özbek sesi" turkumida "Kadınların yürek sözleri" nomli an-



CHAROS RAHIMQULOVA,

Samarqand viloyati Narpay tumanidagi 54-maktab targ'ibotchisi:

– Yoshlar kuni arafasida yoshlar juda faollashib ketadi. Tanlovlar, musobaqalar, bayramlar... Bularning bari faqat va faqat biz, yoshlarga imkoniyatlar eshigi bo'lib xizmat qiladi. Men ham "Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazilayotgan "Munozara" intellektual o'yinida jamoamiz bilan qatnashib, 3-o'rinni, "Mushoira" tanlovining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, ajoyib sovg'alarni qo'lga kiritdim. Yaqinda nashrdan chiqqan – "Men ikkiga kirguncha" nomli qissam bilan "Bolalar va o'smirlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovida qatnashib, taqdirlandim. Yoshlar oyligi men uchun xursandchiliklarga boy o'tmoqda!


talogiyada nashr etildi. Keyinchalik esa bir hikoyam Amerikada almanaxga kiritildi va hozir Amazon.com saytida sotuvda. Rektorimiz tomonidan ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi ko'krak nishoniga ega bo'lish ham nasib etdi. Yoshlar kuniga yaqin qolganda esa ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish xalqaro fond – "Ziyo Forum"ning O'zbekiston Top-100 talaba liderlari almanaxiga kirishga muvaffaq bo'ldim.

Tengdoshlarimga tilagim: hech qachon o'qishni ortga surmang, ijtimoiy tarmoqlardan motivatsiya izlamang, o'tayotgan har daqiqa, ota-onangiz yuzidagi har bir ajin sizning motivatsiyangiz bo'lsin.

SHAHRIYOR SHAVKAT,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi, "Mahalla" telekanali katta muharriri:

– Ochig'ini aytganda, Yoshlar kuni hayotim-ga yaqindagina kirib kelgan bayram. Men buni "Yozgi yangi yil" degan bo'lardim. Yilning ikkinchi yarmida o'z-o'zimga hisob beraman. Nimalarga erishdim, nimalarga ulgurmadim, qanday rejalarim bor... Xullas, bu yil ham ancha omadli keldi. Yoshlar ishlari agentligi va Yosh ijodkorlar kengashi tomonida tashkil etilgan "Duel" tanlovining nazm yo'nalishida g'olib bo'ldim. Yangi hayot boshladim, mas'uliyatim ortdi. O'tgan yil-giga nisbatan ko'proq kitob o'qidim.



ABDUNAZAR SHAROPOV,

Guliston davlat universiteti bitiruvchisi:




Rashid XO'JAMOV tayyorladi

– 2022-yil boshida Qozog'istonda MDH davlatlari oliy ta'lim muassasalarining eng yaxshi talabalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan tanlovda "Eng yaxshi talaba" ko'krak nishoni sohibi bo'ldim. Bu bilan cheklanib qolmay, G'afur G'ulom ijodini chuqur o'rganishga tushdim, o'rganish jarayonida o'zim ta'sirlangan, muhim deb hisoblagan mavzularda maqolalarimni nashr ettirdim. Izlanishlarim bois G'afur G'ulom nomidagi ko'krak nishoniga ham munosib ko'rildim.

40 dan ortiq maqolalarim chop etildi. Ammo yutuqlarim hali juda kam deb o'ylayman.

E' L O N

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ahillik ko'chasi (Savda qatori 60)da joylashgan "KLASSIK GOLD FERGANA" MChJga berilgan dumaloq muhr yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.



“

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'ladi.

Yusuf.Xos HOJIB

Bugungi kunda yurtimiz yoshlari xalqaro maydonda ilmfan sohasida, nufuzli olimpiadalarda erishayotgan yutuqlari bilan nafaqat biz, ustozlarni, balki butun xalqimizni quvontirmoqda. Bunday yutuqlar ko'lami yil sayin ortib borayotgani O'zbekiston kelajagi porloq ekanidan dalolat beradi. Qalbimizda ana shunday ishonch va umid uyg'otayotgan barcha o'g'il-qizlarimiz, talaba yoshlarimizni yoshlik bayrami bilan qutlaymiz!

**Jizzax politexnika instituti
jamoasi**

Reklama huquqi asosida

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 4 bosma taboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-655, Adadi – 10784. Bosishga topshirish vaqti – 21.00, Topshirildi – 03.30

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6